

**O'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARI O'TMISHDA VA HOZIRDA**

*Meylimurotova Madina Rahimkul qizi*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*  
*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi*  
*1-bosqich talabasi*  
*e-mail: [madinameylimurotova@gmail.com](mailto:madinameylimurotova@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va armiyasining tashkil etilishi, O'zbekistondagi harbiy vaziyatni, uning tarixidan hozirgi holatigacha chuqur tahlil qilish, Qurolli Kuchlarning turli tarkibiy qismlari va ularning vazifalari yoritilishiga qaratilgan. Har qanday davlat uchun harbiylarning tashkiliy va jangovar kuchini tushunish muhim va O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Boy tarix va strategik joylashuvga ega bo'lgan O'zbekiston Qurolli Kuchlari va barqarorligini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi. Ushbu maqola yakuniga ko'ra, o'quvchilar O'zbekistondagi harbiylarning tashkiliy va jangovar qudrati, shuningdek, uning jahon reytingida tutgan o'rni haqida yaxshiroq tushunchaga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov davrida harbiy holat qanday tartibda bo'lganligi va hozirgi kunda qanday ko'rinishga keltirilganligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qurolli Kuchlar, armiya, qo'shin, qurolyarog', mustaqillik, mudofaa, infrastruktura, jangovarlik, okrug.

**Abstrakt**

This article focuses on the organization of the Armed Forces and the army of Uzbekistan, the military situation in Uzbekistan, its in-depth analysis from history to the present, various components of the Armed Forces and their tasks. Understanding the organizational and combat power of the military is very important for any country, and Uzbekistan is no exception. With a rich history and strategic location, the Armed Forces of Uzbekistan play an important role in ensuring stability. By the end of this article, readers will have a better understanding of the organizational and combat power of the military in Uzbekistan, as well as its place in the world ranking. In addition, it will be discussed how the military situation was during the time of the first President of the Republic of Uzbekistan, Islom Abduganevich Karimov, and what it looks like now.

**Key words:** Armed Forces, army, troops, weapons, independence, defense, infrastructure, combat, district.

**Абстрактный:**

Данная статья посвящена созданию вооруженных сил и армии Узбекистана, углубленному анализу военной ситуации в Узбекистане , от его истории до настоящего времени, освещению различных компонентов Вооруженных сил и их задач. Для любого государства важно понимать организационную и боевую мощь вооруженных сил и Узбекистан не исключение. Узбекистан, имеющий богатую историю и стратегическое положение, играет важную роль в обеспечении стабильности и вооруженных сил. По завершении данной статьи читатели лучше поймут организационную и боевую мощь вооруженных сил Узбекистана, а также его место в мировых рейтингах. Кроме того, будет рассказано о том, как было введено военное положение при первом Президенте Республики Узбекистан Исломе Абдуганиевиче Каримове и как оно выглядит в настоящее время.

**Ключевые слова:** Вооруженные Силы, армия, войска, вооружение, независимость, оборона, инфраструктура, боевые действия, округ.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari-O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, hududiy yaxlitligi hamda davlat fuqorolarining tinch hayotini himoya qilish, mamlakatda sodir bo'ladigan urushlar, odamlar o'rtasidagi turli urushlar qurolli mojarolarni oldini olish va to'xtatish maqsadida tashkil etilgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov mustaqillikni e'lon qilgandan so'ng milliy armiyani shakllantirishni asosiy vazifa sifatida qaraydi. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari tog'risida'gi Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi Farmoni bilan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilinib, uning shtati va vakolatlari belgilandi. 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan Farmonga muvofiq, Mudofaa ishlari vazirligi Mudofaa vazirligiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi o'z Qurolli Kuchlarini tuzishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining huquqiy me'yorlari, Yevropa xavfsizlik vahamkorlik bo'yicha Xelsinki yakunlovchi akti, MDH kollektiv xavfsizlik Sharhnomasi kabi xalqaro hujjatlarning barcha talablariga rioya qildi.[1] O'zbekiston Qurolli Kuchlari tuzilib bo'lingach, davlatimiz oldidagi asosiy masala uni isloq qilish bo'ldi va turli xil maxsus qo'shinlar tuzildi. Bular:-Quruqlikdagi qo'shinlar; harbiy havo kuchlari va mudofaa; -maxsus va muhandislik quruvchilik qo'shinlari; Ichki ishlari vazirligining qo'shinlari; - O'zbekiston Respublikasi Davlat Xavfsizlik Xizmatining harbiylashtirilgan qismlari va chegara qo'shinlari. [2] Quruqlikdagi qo'shinlar - Qurolli Kuchlarning eng muhim qismi hisoblanib, boshqa qo'shin turlari bilan o'zaro harakatda O'zbekistonga nisbatan qilingan tajovuzlarni qaytarish asosiy vazifasi hisoblanadi. Tank qismlari quruqlikdagi qo'shnlarning asosiy zarba beruvchi vosita hisoblanadi. -Havo hujumidan Mudofaa Qo'shinlari va Harbiy Havo Kuchlari o'z vazifalarini hamkorlikda amalga

oshiradilar.Bu qo'shinlar O'zbekiston Respublikasiga havodan turib qilingan har qanday hujumni bartaraf etishda doimo shay turuvchi qo'shin turlaridir. -Maxsus qo'shinlar o'ta muhim yo'naliishlarda tashkil qilinadigan qo'shinlar guruhlarini kuchaytirish va har tomonlama shakllantirishga mo'ljallangan. -Chegara qo'shinlari bugungi kunda qo'shining mustaqil turi hisoblanib,davlat chegaralarini g'ayriqonuniy tarzda o'zgartirishga yo'l qo'ymaslik, davlat chegarasida harbiy va boshqa fitnalarning oldini olish, chegarani noqonuniy kesib o'tishga yo'l qo'ymaslik va boshqa shu kabi operatsiyalarni o'tkazish Chegara Qo'shinlarining majburiyatlariga kiradi. -Ichki Qo'shinlar Ichki ishlar vazirligi tarkibida tuzilgan bo'lib,uning vazifalari Militsiya Organlari bilan hamkorlikda jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash,fuqorolarning manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Davlat mudofaa qudratining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlari hisoblanadi.Bizning Qurolli Kuchlarimiz har qanday vaziyatda harakat qilishga tayyor turishi, mamlakatimizning jo'g'rofiy-strategik mavqeini va hududining jo'g'rofiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ehtimol tutilgan bosqichiga quruqlikda va havoda munosib zarba bera olish uchun jangovar salohiyatga ega bo'lmosg'i zarur. [3] O'tmishga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Farobi o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ta'kidlashicha, aynan Aftolun "Agar qonun jang qilishni buyursa,demak bu urush uchun emas,tinchlik uchun qilinadi"deb yozadi.Aftolun bu fikri bilan faqatgina farovonlikning o'zi bilan xavfsiz yashashni kafolatlab bo'lmasligini aytmoqchi bo'lgan. [4] O'zbekistonimizda Qurolli Kuchlarning harbiy qudrati, jangovarligi ko'plab omillarda namoyon bo'ladi:

Birinchisi, bu shaxsiy tarkibning miqdori va sifat darajasidir.Bu Qurolli Kuchlarning jismoniy tayyorgarligi, salohiyati,ruhiy qat'iyati bilan belgilanadi.Shaxsiy tarkibning talabga javob beradigan sifat darajasini belgilashda uning professional tayyorgarligi muhim ahamiyatga egadir. Bunda yoshlarga harbiy ta'lim beruvchi tizimning roli beqiyosdir.

Ikkinchisi - Harbiy texnikalar va qurol-yarog'larning miqdori va sifati qay darajada ekanligi.Qurolli Kuchlarni sifatlari qurol-yarog' va harbiy texnika bilan qurollantirish har bir davlat uchun muhim vazifa sanaladi.

Uchinchisi - harbiy infrastruktura. Harbiy infrastrukturaning Qurolli Kuchlardan jangovar holatda foydalanishda roli beqiyosdir. Harbiy infrastruktura qo'shinnarning joyini tezlik bilan o'zgartirishni ta'minlab berishi lozim.Biz Qurolli Kuchlarni samarali boshqarish va barpo etish uchun strategik va operativ jihatdan oldidan ko'ra olish imkoniyatini ta'minlog'imiz darkor.

To'rtinchisi -bosqinchilik ro'y bergan taqdirda jangovar vazifani bajarishga tayyor bo'lishni ta'minlash. Bu jihat davlatning mudofaa qobiliyati uchun ahamiyatli sanaladi.

O'zbekistondagi harbiy qurilish sohasini tubdan isloh qilish bo'yicha eng muhim va ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan. Shu asosda mamlakatimizda mudofaa qudratini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov davrida harbiy tuzilmalarning tarkibi va vazifalari chuqur qayta ko'rib chiqildi, qo'shinchilarni boshqarish tizimi takomillashtirildi, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va texnika vositalari bilan ta'minlash bo'yicha muhim loyihamalar amalga oshirildi. Tariximizda ilk bor o'z mohiyatiga ko'ra noyob tizim harbiy ma'muriy sektorlar tashkil etildi. Bunday ish usuli joylardagi davlat hokimiyati organlarini, mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga faol jalb etish imkonini berdi."Armiya va xalq bir tan-u bir jon" degan g'oya ilgari surildi. Mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining quyidagi harbiy okruglari tashkil etildi: 1.Shimoli-g'arbiy harbiy okrug (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati); 2.Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug (Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari); 3.Markaziy harbiy okrug (Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari); 4.Toshkent harbiy okrugi (Toshkent shahri va Toshkent viloyati); 5.Sharqiylar harbiy okrug (Andijon, Namangan, Farg'onha viloyatlari). [5] Ana shunday say-harakatlarimiz tufayli bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari respublikamiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta ishonchli himoya qilishning chinakam kafolati bo'lmoqda. Eng muhimi, milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf- xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan el-yurt tayanchi va suyanchiga yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi.Qurolli Kuchlarimiz jahon reytingida ham o'z o'rniga ega.Armiyamiz harbiy salohiyati bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlarida beshinchi o'rinda turadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Global Firepower Index saytining 2023-yilda yangilangan reytingida O'zbekiston armiyasi 145ta davlatdan 62-o'rinda ekanligi keltirilgan. Milliy armiyamizning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar qo'shinchilarning jangovar tayyorgarligi, harbiy qudrati va salohiyatini yanada oshirish yanada imkonini berdi. Pahlavon va botir o'g'lonlarimiz xalqaro harbiy-o'quv mashg'ulotlari, armiya va sport musobaqalarida dunyodagi yetakchi mamlakatlarning harbiy xizmatchilariga aslo bo'sh kelmasdan, g'alabaga bo'lgan irodasini yaqqol namoyon etib, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanini isbotlamoqdalar.[6]

**Xulosa:** Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch hayoti va farovonligini ta'minlash kafolati bo'lib xizmat qilib kelmoqda.Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkarda bobokalonlarimizning jangovar an'analarini munosib davom ettirib kelayotgan, davlat

va xalq manfaati uchun har qanday sinov va mashaqqatlarini yengib o'tishga tayyor bo'lgan harbiyalarimiz har qanday yuksak e'tirofga munosibdirlar.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.M.Uzoqov, L.L.Nurullayev, T.T.Nazarov "Harbiy tarix", Buxoro-2022, 194-195 betlar.
2. www.ziyo.uz.com kutubxonasi.
3. Islom Karimov "XXI asr bo'sag'asida"  
Islom Karimov "Milliy armiyamiz-mustaqilligimizning tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir", Toshkent-2003.
4. Narzulla Jorayev, Akbar Zamonov "11-sinf O'zbekiston tarixi "darsligi, Toshkent-2018, 19-bet..
5. "Shifokor so'zi" gazetasi, Samarqand davlat tibbiyat instituti nashri.
6. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2023): 67-67.
7. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2.7 (2023): 8-14.
8. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
9. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ." *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development* 1.3 (2023): 4-9.
10. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O 'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 1285-1287.
11. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje*. 22 (2022): 229-231.
12. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARDA MA'NAVIY MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL* 3 (18) (2022).
13. Nurillaevich, Omonov Bahodir, et al. "Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 984-989.

- 14.Nurillaevich, Amonov Bakhodir. "Shortage and Problem of Drinking Water in Central Asia." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 1.9 (2023): 504-509.
- 15.Omonov, Bakhodir. "THE EXPRESSION OF GEOPOLITICAL KNOWLEDGE IN THE WORKS “THE CITY OF VIRTUOUS PEOPLE” AND “INDIA”." *Open Access Repository* 9.6 (2023): 16-20.
- 16.Nurillayevich, Omonov Bakhodir. "ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL SI-1* (2022).
- 17.Nurillaevich, Omonov Bakhodir. "THE IMPORTANCE OF RELIGIOUS VALUES IN THE FORMATION OF A PERSONAL ECOLOGY CULTURE." *Archive of Conferences*. Vol. 15. No. 1. 2021.
- 18.Omonov, Bahodir. "IS ARAL SEA OR LAKE?(SOME THOUGHTS ABOUT THE REASONS THAT TURNED THE ARAL SEA INTO THE LAKE, MORE PRECISELY INTO THE DESERT" ARALKUM")." *Theoretical & Applied Science* 3 (2016): 63-67.
- 19.OMONOV, Bahodir. "“DASTUR UL-MULUK” VA “SADDI ISKANDARIY” ASARLARIDA GEOSIYOSIY QARASHLAR." *News of UzMU journal* 1.1.2 (2024): 180-183.
- 20.Omonov, Bahodir. "Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia." *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry* 12.8 (2021).